

O‘ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISHI VA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

203-guruh talabasi **Aziza Ismoilova**

Annotatsiya (o‘zbek tilida): Ushbu maqolada o‘zbek tilining lug‘at tarkibida yuz berayotgan yangilanish jarayonlari, neologizmlarning paydo bo‘lish omillari va ularning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Neologizmlarning ilm-fan, texnika, ijtimoiy hayot hamda madaniy jarayonlar ta’sirida shakllanishi yoritilib, ularning zamonaviy o‘zbek adabiy tilidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: neologizm, yangi so‘z, leksika, til taraqqiyoti, o‘zlashma so‘zlar, termin, zamonaviy nutq.

Аннотация (на русском языке): В данной статье рассматриваются процессы обновления словарного состава узбекского языка, причины возникновения неологизмов и особенности их употребления. Освещается формирование новых языковых единиц под влиянием науки, техники, общественных и культурных процессов, а также определяется их роль в современном узбекском литературном языке.

Ключевые слова: неологизм, новое слово, лексика, развитие языка, заимствованные слова, термин, современная речь.

Abstract (in English): of new linguistic units under the influence of science, technology, social and cultural changes, and reveals their role in the development of the modern Uzbek literary language.

Keywords: neologism, new word, vocabulary, language development, borrowed words, term, modern speech.

Til jamiyatning ko‘zgusi hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, madaniy va texnologik o‘zgarishlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri til rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy dunyo tez sur’atlarda o‘zgarib bormoqda, va bu o‘zgarishlar til tizimida ham o‘z aksini topmoqda. o‘zbek tili ham bu global jarayondan mustasno emas.

Mamlakatimiz to‘liq mustaqillikka erishgandan beri, ayniqsa XXI asrning dastlabkidekadalarida o‘zbek tilida ko‘plab yangi so‘zlar paydo bo‘ldi va bu jarayon davom etmoqda.

Zamonaviy o‘zbek tili doimiy rivojlanish va yangilanish jarayonida bo‘lib, bu holat jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy

o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Til – jamiyatning tirik ko'zgusi bo'lib, undagi har qanday yangilik, avvalo, leksik qatlamda o'z aksini topadi. Ayniqsa, neologizmlar – yangi so'z va atamalarining paydo bo'lishi zamonaviy til taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilida neologizmlarning paydo bo'lish sabablari, ularning asosiy manbalari, shakllanish yo'llari hamda funksional xususiyatlari keng ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Neologizm (yunoncha neos yangi, logos so'z) tushunchasi tilshunoslikda yangi aratilgan yoki ilgari mavjud bo'lmagan, lekin endilikda keng ishlatilayotgan so'zlarni anglatadi. Ular tildagi mavjud so'z yasash modellari orqali ham, boshqa tillardan o'zlashuv yo'li bilan ham paydo bo'ladi. O'zbek tili mustaqillikdan so'ng o'z taraqqiyot bosqichiga kirib, yangi siyosiy va madaniy realliklar, ijtimoiy-siyosiy atamalar, texnologik yangiliklar va internet madaniyati ta'sirida o'z leksik boyligini sezilarli darajada kengaytirdi.

Neologizmlarning yuzaga kelishida bir qator omillar muhim rol o'ynaydi:

Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, siyosiy institutlar bilan bog'liq yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Natijada "fuqarolik jamiyati", "ommaviy axborot vositalari", "saylov kampaniyasi" kabi neologizmlar shakllandi.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyot. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot sohalaridagi rivojlanish "onlayn", "ilova", "sun'iy intellekt", "kiberxavfsizlik" kabi yangi birliklarning tilga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, globalizatsiya va til aloqalari. Xorijiy tillar, ayniqsa ingliz tilining ta'siri natijasida ko'plab o'zlashma neologizmlar paydo bo'lmoqda. Bunday so'zlar dastlab o'zlashma shaklda kirib kelib, keyinchalik o'zbek tilining fonetik va grammatik qonunlariga moslashadi [1].

Zamonaviy o'zbek tilidagi neologizmlarni kelib chiqish manbalariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Ichki imkoniyatlar asosida yasalgan neologizmlar. Bular affiksatsiya, qo'shma so'zlar va qisqartmalar orqali hosil qilinadi: "raqamlashtirish", "o'zini o'zi band qilish", "xalqaro reyting".

O'zlashma neologizmlar. Asosan ingliz, rus va boshqa tillardan kirib kelgan: "marketing", "menedjer", "brending".

Aralash neologizmlar. O'zbek va xorijiy elementlar qo'shilishi orqali yasaladi: "onlayn-dars", "media-loyiha".

Zamonaviy o'zbek tilida neologizmlar bir necha asosiy usullar orqali shakllanadi va bu jarayon tilning ichki imkoniyatlari hamda jamiyat ehtiyojlari bilan bevosita bog'liqdir. Eng samarali usullardan biri affiksatsiya bo'lib, u orqali yangi so'zlar faol ravishda yasaladi. Masalan, innovatsiya asosida hosil bo'lgan innovatsion, raqam so'zidan yasalgan raqamli kabi birliklar zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik

jarayonlarni ifodalashda keng qo'llanmoqda.

Neologizmlar hosil qilishning yana bir muhim yo'li kompozitsiya, ya'ni ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi orqali yangi leksik birlik yaratishdir. Bunga elektron hukumat, axborot xavfsizligi, raqamli ta'lim kabi birikmalar misol bo'la oladi. Bunday neologizmlar murakkab tushunchalarni ixcham va aniq shaklda ifodalash imkonini beradi.

Zamonaviy nutqda qisqartmalar ham muhim o'rin egallaydi. Qulaylik va ixchamlikni ta'minlash maqsadida yaratilgan OAV (ommaviy axborot vositalari), AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) kabi birliklar rasmiy, ilmiy va publitsistik uslublarda keng qo'llanmoqda. Shuningdek, semantik kengayish hodisasi ham neologizmlar shakllanishining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bunda avvaldan mavjud bo'lgan so'z yangi ma'noda ishlatiladi. Masalan, tarmoq so'zi an'anaviy ma'nosidan tashqari, bugungi kunda internet tizimini anglatishda faol qo'llanilmoqda.

Neologizmlar zamonaviy o'zbek tilida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi.

Eng avvalo, ular nomlash (nominativ) funksiyasini bajarib, jamiyatda paydo bo'layotgan yangi tushuncha va hodisalarga nom beradi.

Bugungi kunda neologizmlarning eng faol shakllanish sohasi ijtimoiy hayot va texnologiyadir. Jamiyatdagi yangi tushunchalar, yangi kasblar, yangi hodisalar tilda o'z ifodasini topmoqda. Masalan, ilgari "blogger", "kontent", "onlayn", "like", "skrinshot", "post", "trend", "freelanser" kabi so'zlar mavjud emas edi. Ular internet tarmog'ining hayotimizga kirib kelishi bilan o'zbek tilida mustahkam o'rinishib oldi.

Bevosita yoki rus tili vositasida o'zlashgan bo'lsa-da, ular endi o'zbek tilining faol qatlamiga kirib bormoqda.

Masalan, "blogger" so'zi dastlab chet tildan olingan bo'lsa-da, hozir u o'zbekcha talaffuz va grammatikaga moslashgan: "bloggerlik", "bloggerlik faoliyati", "bloggerlar" kabi shakllar paydo bo'lgan. Yoki "kontent" so'zidan "kontent yaratish", "kontent tayyorlash", "kontent sifatida" kabi yangi birikmalar hosil bo'lmoqda. Bu holat o'zbek tilining neologizmlarni o'zlashtirishda moslashuvchan va ijodkor til ekanini ko'rsatadi.

Texnologiya va internet tili bugungi o'zbek jamiyatining eng ta'sirchan leksik manbai hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanilayotgan yangi so'zlar tezlik bilan xalq tiliga singmoqda. Masalan, "storilarni ko'rmoq", "post tashlamoq", "akaund ochmoq", "trendga chiqmoq", "reels qilish" kabi birikmalar grammatik jihatdan o'zbekcha, lekin leksik jihatdan yangi o'zlashmalarni o'zida mujassam etadi. Bu jarayon tabiiy chunki til foydalanuvchilari yangi kommunikativ muhitda o'z fikrini ifodalash uchun yangi vositalarga ehtiyoj sezadi.

Shu o'rinda yoshlar tili ham alohida e'tiborga loyiq. Yosh avlodning tilida neologizmlar eng faol qo'llanadi. Ularning tili zamon bilan hamnafas, tez o'zgaruvchan, ba'zan esa norasmiy va yarim so'zlashuviy tusga ega. Masalan, "kruto", "top", "prosta

zo'r", "chill", "vibe", "mood", "like bosmoq", "blok qilmoq", "skrin qilmoq", "follower", "story", "update" kabi so'zlar yoshlar o'rtasida kundalik muloqot vositasiga aylangan. Ayrimlari o'zbek tilidagi so'zlar bilan qo'shilib, yangi shaklga ega bo'lmoqda: "bloklamoq", "skrinlamoq", "storilamoq", "likechi", "followerlik", "tarmoqchi" kabi.

Bu jarayon, ba'zan, tilning "sofligi"ga xavf tug'dirayotgandek tuyuladi, ammo aslida bu tabiiy leksik o'zgarish. Har bir tirik til o'z davrining madaniy, ilmiy, texnologik rivoji bilan birga o'zgaradi. Shunchaki, bu o'zgarishlarni boshqarish, tartibga solish, ularni adabiy tilda me'yorlash zarur. Til siyosati va leksikografiya bu borada muhim rol o'ynaydi. Masalan, "kompyuter", "dastur", "elektron pochta", "fayl", "brauzer" kabi so'zlar dastlab begona bo'lsa, hozirda ular o'zbek tilida to'la o'zlashtirilgan, hatto o'z tarmoq neologizmlarini yasamoqda:

"brauzer oynasi", "fayl yuklamoq", "dasturchi", "onlayn dars" kabi. Neologizmlar paydo bo'lishining sabablari ko'p. Eng asosiy omillar:

1. Texnologik taraqqiyot yangi qurilmalar, dasturlar, xizmat turlari yangi atamalarni talab qiladi.
2. nomlanadi. Ijtimoiy-madaniy jarayonlar - yangi g'oyalar, hayot tarzi, kasb va hodisalar
3. Globalizatsiya va tillararo aloqa ingliz tili global til sifatida o'zbek tiliga ko'plab yangi so'zlarni olib kiradi.
4. Yoshlar submadaniyati - zamonaviy muloqot uslubi va internet slengi orqali yangiliklarni tez singdiradi.

Bu o'zgarishlarning ijobiy jihatlari bilan birga, ayrim salbiy tomonlari ham bor. Masalan, haddan ziyod o'zlashmalar natijasida milliy leksik fondagi asl so'zlar chetlab qolishi mumkin. "Start" o'rniga "boshlanish", "download" o'rniga "yuklab olish", "update" o'rniga "yangilash" kabi o'zbekcha muqobillarni ishlatish tilning milliy ruhini saqlaydi. Shu bois, til siyosatida muvozanatni saqlash muhim: yangi so'zlarni qabul qilish, lekin o'z so'z boyligimizni ham qadrlash.

Tildagi neologizmlarning afzalliklari va muammolari;

Afzalliklari:

Til boyligini oshiradi, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan tildagi aloqani mustahkamlaydi.

Muammolari:

Til me'yoridan chiqish imkoniyati: adabiy til madaniyati buzilishi xavfi.

Terminologiyada aniqlik yetishmasligi, so'z va ma'nolar chalkashligi.

Milliy o'zlik nuqtai nazaridan so'z o'zlashtirish va til aralashuvi (tilning o'ziga xosligi) xavfi.

O'zbek tilida neologizmlarning shakllanishi va qo'llanilishi tilshunoslik nuqtai nazaridan jiddiy ahamiyatga ega. Bu jarayon til taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Biroq, yangi so'zlarni til tizimiga joylashtirishda til me'yorlari, milliy o'zlik, adabiy til

madaniyati kabi omillarni hisobga olish zarur.

O'zbek tilida zamonaviy neologizmlarning shakllanishi va qo'llanilishi - bu murakkab, multi-aspektli jarayondir. Texnologik rivojlanish, global axborot almashinuvi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari o'zbek tilida yangi so'zlar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardir.

Internet sohasi, raqamli texnologiya, tibbiyot, ilm va ta'lim sohalari o'zbek tilida neologizmlarning eng faol manbalariga aylandi. Bu sohalarda vujud borayotgan yangi tushuncha va jarayonlar o'zbek tilida o'z ifodalarini topmoqda, o'zbek tilishunosligi esa bu jarayonni chuqun o'rganib, tizimlashtirmoqda.

Neologizmlarning tahlili o'zbek tilining zamonaviy holati haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Til jamiyat bilan birga rivojlanib, doimo yangilanib boradigan murakkab tizimdir. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy o'zgarishlar tilning lug'at tarkibida ham o'z aksini topadi. Ana shunday jarayon natijasida yangi tushunchalarni ifodalovchi yangi so'zlar — neologizmlar paydo bo'ladi. O'zbek tilining lug'at boyligi ham tarixiy taraqqiyot davomida turli yangi birliklar bilan boyib kelgan.

Neologizm (yunoncha *neos* — yangi, *logos* — so'z) — tilda yangi paydo bo'lgan yoki yangi ma'noda qo'llana boshlagan so'z va iboralardir. Neologizmlar jamiyat ehtiyojidan kelib chiqadi va ma'lum davrning ijtimoiy hayotini aks ettiradi.

O'zbek tilida neologizmlarning shakllanishi bir necha omillar asosida yuz beradi:

1. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida.

Bugungi kunda internet, axborot texnologiyalari rivoji natijasida tilimizga ko'plab yangi birliklar kirib kelmoqda. Masalan: raqamlashtirish, onlayn, platforma, sun'iy intellekt kabi so'zlar zamonaviy hayot bilan bog'liq holda faol ishlatilmoqda.

2. Boshqa tillardan o'zlashish orqali.

Globallashuv jarayoni natijasida ko'plab xalqaro terminlar o'zbek tiliga kirib kelmoqda. Ular tilimizning ilmiy va kasbiy sohalarini boyitmoqda.

3. Tilning ichki imkoniyatlari asosida.

O'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlari orqali ham yangi birliklar hosil bo'ladi. Masalan, tadbirkorlik, kitobxonlik, raqamlashtirish kabi so'zlar tilning ichki qonuniyatlari asosida shakllangan.

Neologizmlar qo'llanish doirasiga ko'ra ham farqlanadi. Ayrim yangi so'zlar vaqt o'tishi bilan umumxalq tiliga singib ketadi, ayrimlari esa ma'lum soha doirasida ishlatiladi. Masalan, ilmiy terminlar asosan mutaxassislar nutqida qo'llansa, kundalik hayotdagi yangi so'zlar keng ommalashadi.

O'zbek tilida neologizmlardan foydalanishda me'yor masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Har qanday yangi so'z til tizimiga moslashishi, talaffuz va yozuv qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Aks holda, u nutqda noqulaylik tug'dirishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar o'zbek tilining doimiy rivojlanib borayotganini ko'rsatuvchi muhim til hodisasidir. Ular jamiyatdagi yangiliklarni ifodalash, ilm-fan va texnologiya taraqqiyotini aks ettirishda katta ahamiyatga ega. Yangi so'zlarning paydo bo'lishi til boyligini oshiradi, biroq ularni qo'llashda til me'yorlariga rioya qilish zarur.

Tilni saqlash va uni zamonaviy qilish – bu bir-birga ziddiyat emas.

Neologizmlarni ilmiy asosda o'rganish, ularni mazmunli qayta ishlash va til tizimi bilan muvofiqlashtirib qabul qilish – bu til evolyutsiyasining tabiiy jarayoniga o'xshashdir. o'zbek tili kabi boy, chaqqon til o'zbek jamiyatining taraqqiyat talabiga muvofiq rivojlanib borayotgani – bu faxrli va ishonch bilan to'la masala.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Fan nashriyoti.
3. A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — Toshkent.
4. N. Mahmudov. O'zbek tili va adabiyoti masalalari. — Toshkent.
5. Karimov, J. (2011). "Til qo'mitasining neologizmlar bo'yicha ishlari". Fan va Texnologiya